



## BARQAROR IJTIMOYIY-SIYOSIY RIVOJLANISHNI KONSEPTUALLASHTIRISH VA TAHLIL QILISH USHLUBLARI

Nasirova Nilufar Yuldashevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil  
izlanuvchisi, nilufarnasirova2017@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227779>

### ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> April 2025

Published: 16 th April 2025

#### KEYWORDS

*siyosiy tizim, institutsionalizm, modernizatsiya nazariyasi, avtoritar barqarorlik, siyosiy tahlil ushlublari.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanish tushunchasi va uni tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlar ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy barqarorlikni baholashda qo'llaniladigan asosiy ushblar, indikatorlar va ularning afzallik hamda cheklovlari ko'rib chiqiladi. Mamlakatlarning siyosiy tizimlari o'rtasida mavjud farqlarni hisobga olgan holda, barqarorlikni o'lchashda kontekstual yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.*

### Kirish

Bugungi globalashuv sharoitida davlatlarning siyosiy barqarorligi nafaqat ichki rivojlanish, balki xalqaro nufuzi, investitsiya muhitining barqarorligi va fuqarolarning ijtimoiy farovonligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, siyosiy barqarorlik va uni ta'minlovchi omillarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu masalaga konseptual yondashuvlar asosida yoritma beriladi.

### Asosiy qism

Siyosiy barqarorlik zamonaviy siyosatshunoslikda ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u nafaqat zo'ravonlikning yo'qligi, balki siyosiy institutlarning legitimligi, hukumatga bo'lgan ishonch, va jamiyatdagi ijtimoiy kelishuv darajasi bilan bog'liqdir. Ushbu barqarorlikni tushuntirishda uchta asosiy nazariy yondashuv ajralib turadi: liberal institutsionalizm, avtoritar barqarorlik modeli va modernizatsiya nazariyasi. Har biri barqarorlikni har xil omillar orqali izohlaydi.

Barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanish g'oyasi bir nechta nazariy yondashuvlar orqali tushuntiriladi:

Liberal institutsionalizm — bu siyosiy barqarorlikni tushuntiruvchi asosiy nazariyalardan biri bo'lib, uning ildizlari klassik liberalizmga borib taqaladi. Ushbu yondashuvning markaziy g'oyasi shundan iboratki: barqaror siyosiy rivojlanish jamiyatdagi mustahkam va hisobdor siyosiy institutlarning mavjudligi orqali ta'minlanadi. Bu institutlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qonun chiqaruvchi organ (parlament), ijro hokimiyati, sud hokimiyati, mustaqil ommaviy axborot vositalari va faol fuqarolik jamiyati.

Liberal institutsionalizm - bu yondashuvga ko'ra, siyosiy tizimning barqarorligi mustahkam institutlar — parlament, sud hokimiyati, fuqarolik jamiyati, erkin OAV orqali ta'minlanadi. Duglas Nort va Fransis Fukuyama asarlarida bu yondashuv keng yoritilgan. Biroq, Ummon misolida formal demokratik institutlar zaifroq bo'lsa-da, boshqa omillar muhim rol o'ynaydi.

Liberal institutsionalizm XX asrning ikkinchi yarmida siyosatshunoslikda kuchli mavqega ega bo'la boshladi. Bu yondashuvni shakllantirishda quyidagi olimlarning hissasi katta: Duglas Nort - "institutsiyalar – bu o'yin qoidalari" degan yondashuvni ilgari surdi va samarali, uzoq muddatli iqtisodiy-siyosiy rivojlanish uchun institutlarning ahamiyatini asoslab berdi. Fransis Fukuyama - o'zining "Political Order and Political Decay" asarida kuchli davlat institutlari barqaror siyosiy tizimlar yaratishdagi rolini ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Uning fikricha, davlat institutlari professional, qonun asosida ishlovchi va korrupsiyadan xoli bo'lishi kerak.<sup>2</sup>

Qonun ustuvorligi - barcha fuqarolar, jumladan hokimiyat egalari ham qonun oldida teng. Hisobdorlik - davlat idoralari xalq oldida hisob beradigan bo'lishi kerak. Shaffoflik va erkin axborot oqimi - erkin matbuot orqali hukumat faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Institutlar muvozanati va tormozlash tizimi - hokimiyat tarmoqlari o'zaro nazorat qiladi.<sup>3</sup>

Liberal institutsionalizmga ko'ra, agar siyosiy tizim yuqoridagi institutlarga tayanadigan bo'lsa, bu tizim: siyosiy inqirozlarga chidamli bo'ladi; aholining noroziligiga qonuniy javob bera oladi; siyosiy tranzit davrlarini (masalan, hokimiyat almashinuvi) zo'rvonliksiz o'tkaza oladi; korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boradi.

Biroq, bu yondashuv ayniqsa rivojlanayotgan va avtoritar davlatlar misolida doim ham to'liq ishlamaydi. Masalan, Ummon kabi davlatlarda: formal demokratik institutlar zaif, ya'ni parlament vakolatlari cheklangan; fuqarolik jamiyati faol emas, erkin OAV ham to'liq mustaqil emas; biroq amaliy barqarorlik mavjud. Bu holatda siyosiy barqarorlik boshqa - ya'ni liderlik, an'anaviy legitimlik, paternalizm va iqtisodiy ijtimoiy siyosat orqali ta'minlanadi. Shu sababli, Ummon holatida liberal institutsionalizm orqali to'liq tahlil qilish uchun bu nazariyaning chegaralari va moslashuvchanligi haqida ham gapirish lozim bo'ladi. Aynan shu nuqtai nazar siyosiy tahlilni yanada chuqurlashtiradi.

Liberal institutsionalizm, ayniqsa G'arbiy demokratik tizimlar uchun samarali tushuntiruvchi model hisoblanadi. U siyosiy barqarorlikni formal institutlar samaradorligi va aholining ishtiroki orqali tushuntiradi. Ummon kabi davlatlarda esa ushbu modeldan qisman foydalanish mumkin - ayniqsa, institutlar o'rnini lider shaxsiyati, tarixiy legitimlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi boshqa vositalar egallagan hollarda. Shu sababli, liberal institutsionalizm nazariyasi Ummon Sultonligini tushuntirishda muhim, biroq cheklangan tusga ega bo'lib, uni boshqa nazariyalar bilan to'ldirish lozim bo'ladi.

Avtoritar barqarorlik modeli Steven Levitsky va Lukan Way tomonidan ishlab chiqilgan "competitive authoritarianism" va "authoritarian resilience" konsepsiyalari doirasida ayrim avtoritar tuzumlar ham uzoq muddatli siyosiy barqarorlikka erisha olishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ummon Sultonligi aynan shunday barqarorlikning o'ziga xos namunasi.

Siyosiy barqarorlik ko'pincha liberal-demokratik institutlar bilan bog'lab tushuntiriladi. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda siyosatshunoslikda avtoritar tizimlarning ham uzoq muddatli siyosiy barqarorlikka erisha olishi ilmiy nuqtai nazardan keng tahlil qilinmoqda. Bu yondashuv "avtoritar barqarorlik" deb ataladi. Mazkur nazariyaning eng muhim tarafdorlari Steven Levitsky va Lukan Way bo'lib, ular bu modelni "competitive authoritarianism" va "hybrid regimes" tushunchalari orqali chuqur tahlil qilgan.<sup>4</sup>

Avtoritar tizimlar qanday barqaror bo'la oladi? Levitsky va Way ta'riflaganidek, raqobatdosh avtoritarizm bu rasmiy ravishda demokratik institutlarga ega, ammo amalda

<sup>1</sup> Francis Fukuyama Political Order and Political Decay: From the Industrial Revolution to the Globalization of Democracy. <https://fukuyama.stanford.edu/politicalorderandpoliticaldecay>

<sup>2</sup> Fransis Fukuyama – The Origins of Political Order: From Prehuman Times to the French Revolution. Farrar, Straus and Giroux, 2011

<sup>3</sup> Fukuyama, F. (2011). The Origins of Political Order: From Prehuman Times to the French Revolution. Farrar, Straus and Giroux.

<sup>4</sup> Steven Levitsky Lucan A Way

[https://www.researchgate.net/publication/Competitive\\_Authoritarianism\\_Hybrid\\_Regimes\\_after\\_the\\_Cold\\_War\\_by](https://www.researchgate.net/publication/Competitive_Authoritarianism_Hybrid_Regimes_after_the_Cold_War_by)

avtoritar nazorat ostidagi siyosiy tizimdir<sup>5</sup>. Ular quyidagi asosiy xususiyatlarga ega: saylovlar mavjud, ammo adolatsiz va nazorat ostida; muxolifatga ruxsat beriladi, lekin ular cheklangan resurslarga ega; OAV qisman erkin, lekin senzura va o'z-o'zini senzura mavjud; qonun ustuvorligi rasmiy darajada e'tirof etiladi, ammo siyosiy hokimiyat unga aralasha oladi. Bu tizimlar demokratik institutlarning tashqi ko'rinishini saqlab, aslida markazlashgan hokimiyat, paternalistik boshqaruv va ijtimoiy nazorat orqali siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi.

"Authoritarian resilience" tushunchasi Xitoy, Vetnam, Eron va Ummon kabi davlatlarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu tizimlarda siyosiy barqarorlik: institutlar emas, balki liderlik, mafkuraviy legitimlik va ijtimoiy ijobiylik asosida barqaror saqlanadi, hokimiyatda uzluksizlik, boshqaruvning markazlashuvi va xavfsizlik apparati nazorati orqali ta'minlanadi.

Ummon Sultonligi - aynan avtoritar barqarorlik modelining o'ziga xos va muvaffaqiyatli namunalaridan biridir. Quyidagi jihatlar bunga asos bo'ladi: markazlashgan hokimiyat va shaxsga asoslangan legitimlik - Ummon sultoni (xususan, Sulon Qobus bin Said) mamlakatda siyosiy hokimiyatni markazlashtirgan. Uning karizmatik liderligi va modernizatsion islohotlari jamiyatda yuqori darajada qo'llab-quvvatlangan. Hokimiyat almashinuvi hech qanday siyosiy inqirozsiz, silliq amalga oshdi - bu kuchli tizimiy barqarorlikni ko'rsatadi.

Nisbiy siyosiy ochiqlik va "kontrolli islohotlar"- Ummon parlamenti (Majlis al-Shura) mavjud, lekin u maslahat beruvchi organ sifatida cheklangan vakolatlarga ega. Senzura mavjud bo'lsa-da, siyosiy barqarorlikni buzmaslik sharti bilan fuqarolar o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Hukumat muqobil fikrlarni ochiq repressiya bilan emas, balki ularni moslashtirish va ko'rsatmali islohotlar orqali bartaraf etadi.

Xalq bilan paternalistik ijtimoiy shartnoma - davlat aholiga bepul yoki arzon sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma va ish o'rinlari bilan kafolatlangan turmush tarzini ta'minlaydi. Hokimiyatga norozilik nisbatan past, chunki ko'pchilik iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni avtoritar boshqaruv bilan bog'laydi.

Tashqi siyosiy betaraflik - Ummon Eron-Saudiya mojarolari, Qatar blokadasi, Yaman urushi kabi mintaqaviy inqirozlarda neytral pozitsiyani saqlab, o'z ichki barqarorligini mustahkamlab kelmoqda.

Avtoritar barqarorlik uzoq muddatda doimiy kafolatlanmagan, u ko'pincha lider shaxsiga bog'langan bo'ladi. Erkin fuqarolik jamiyatining yo'qligi siyosiy tizimni yangilanishdan mahrum qiladi. Siyosiy noroziliklar yoki iqtisodiy inqirozlar paytida bunday tizimlar zaiflikni ko'rsatishi mumkin.

Avtoritar barqarorlik modeli, ayniqsa Ummon kabi davlatlarni tahlil qilishda nihoyatda dolzarb. U klassik demokratik yondashuvlarga muqobil sifatida qaraladi va siyosiy tizim barqarorligi uchun institutlar emas, balki liderlik sifati, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, mafkuraviy legitimlik, tashqi siyosiy ehtiyotkorlik asosiy o'rin tutishini ko'rsatadi. Ummon Sultonligi bu modelning muvaffaqiyatli amaliy namunasi - siyosiy muxolifatsiz, ommaviy noroziliklarsiz, ichki ixtiloflarsiz o'tgan o'n yilliklar buni tasdiqlaydi.

Modernizatsiya nazariyasi Samuel Hantington fikricha, sanoatlashtirish, urbanizatsiya, ta'lim darajasining ortishi jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi.<sup>6</sup> Ummon so'nggi o'n yilliklarda iqtisodiy rivojlanish orqali bu omillarni kuchaytirgan.

Modernizatsiya nazariyasi - siyosiy rivojlanish va barqarorlikni tushuntiruvchi klassik yondashuvlardan biridir. Ushbu nazariya XX asrning o'rtalarida paydo bo'lib, G'arbiy dunyo rivojlanish tajribasiga asoslangan. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki: iqtisodiy o'sish, sanoatlashtirish, urbanizatsiya va ta'lim darajasining oshishi jamiyatni zamonaviylashtiradi va natijada siyosiy tizimning barqarorligiga olib keladi.

<sup>5</sup> Levitsky, S., & Way, L. A. (2002). The Rise of Competitive Authoritarianism. *Journal of Democracy*, 13(2), 51–65.

<sup>6</sup> Hantington, S. P. (1968). *Political order in changing societies*. Yale University Press.

Modernizatsiya nazariyasining yetakchi vakillari: Samuel P. Hantingtonning "Political Order in Changing Societies" (1968) asarida modernizatsiya jarayonlari siyosiy barqarorlikka qanday ta'sir qilishini chuqur tahlil qilgan. Unga ko'ra "Modernizatsiya — bu faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va siyosiy jarayon. Agar siyosiy institutlar modernizatsiya tezligiga yetisha olmasa, siyosiy beqarorlik yuzaga keladi."<sup>7</sup>

Seymour Martin Lipsetning mashhur tezisi: "The more well-to-do a nation, the greater the chances that it will sustain democracy."<sup>8</sup> (Ya'ni, iqtisodiy farovonlik siyosiy barqarorlik va demokratiyani mustahkamlaydi.)

Sanoatlashtirish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanadi, yangi ijtimoiy qatlamlar paydo bo'ladi (o'rta sinf), urbanizatsiya - aholining shahar hududlarda to'plana boshlashi, zamonaviy kommunikatsiya va ijtimoiy harakatchanlik ortadi, ta'lim darajasining oshishi savodxonlik kengayadi. Shuningdek, siyosiy ong va fuqarolik ishtiroki kuchayadi. Aholining ehtiyojlari qondirilgani sari siyosiy norozilik kamayadi, davlatga nisbatan ishonch ortadi.

Sanoatlashtirish va infratuzilma islohotlari yo'nalishi bo'yicha Ummonda yirik islohotlar olib borildi. 1970-yildan boshlab Sulton Qobus tashabbusi bilan mamlakatda infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va sanoat sohaslarida keng ko'lamli modernizatsiya boshlandi. Aholi savodxonligi 90 foizdan oshdi, shaharlar jadal rivojlandi, turizm, logistika va texnologiyalar sohasiga sarmoya yo'naltirildi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy barqarorlikni ham ta'minlashga xizmat qildi.

Shahar aholisi soni keskin oshdi: Muskat, Salala va Sohar kabi yirik shaharlar tez rivojlandi. Shaharlar ijtimoiy xizmatlar, maktablar, kasalxonalar va madaniy markazlarga to'la bo'lib, fuqarolarning davlatga integratsiyasini kuchaytirdi.

Ummon hukumati ta'limga ustuvor yo'nalish sifatida yondashgan. 1970-yilda deyarli savodsiz bo'lgan jamiyat hozirda 90% dan ortiq savodxonlik darajasiga ega. Universitetlar, texnik kollejlari va xorijiy o'qish dasturlari kengaydi.

Neft eksportiga tayanishga qaramay, Ummon 2000-yillardan boshlab "Vision 2020" va "Vision 2040" strategiyalari orqali turizm, logistika, baliqchilik va IT kabi sohalarni rivojlantirishga harakat qildi.<sup>9</sup>

Modernizatsiya orqali yaratilgan yangi o'rta sinf, davlatga nisbatan ijobiy munosabat, va fuqarolik institutsiyalarining rivojlanishi siyosiy beqarorlikka qarshi tormoz rolini o'ynadi. Ummonliklar davlat tomonidan berilgan imkoniyatlarni qadrlab, hokimiyatga sodiqlikni saqlashdi.

Hantington o'zi ham tan olganidek, modernizatsiya har doim barqarorlik keltirmaydi. Agar siyosiy institutlar modernizatsiyaga tez moslasha olmasa, siyosiy beqarorlik kuchayadi. Ummonda modernizatsiya yuqoridan pastga qarab olib borilgan - bu esa fuqarolik ishtiroki va siyosiy pluralizmning cheklanganligini anglatadi.

Modernizatsiya nazariyasi Ummon Sultonligi tajribasida muhim ahamiyatga ega. Sanoatlashtirish, urbanizatsiya va ta'limdagi yutuqlar mamlakatda: ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishiga, aholining davlatga bo'lgan ishonchiga, va umuman siyosiy barqarorlikka xizmat qildi. Biroq bu barqarorlik faqat modernizatsiyaga emas, balki uni boshqarayotgan siyosiy elita va liderlarning oqilona strategiyasiga ham bog'liq bo'ldi.

Ummon Sultonligining siyosiy barqarorligi mazkur uchta nazariy yondashuvning o'ziga xos kombinatsiyasi orqali tushuntirilishi mumkin. Formal institutlar mavjud bo'lishiga qaramay, ular asosan ramziy rol o'ynaydi. Asosiy barqarorlik omili bu - liderlikning legitimligi, siyosiy hokimiyatning markazlashuvi va paternalistik ijtimoiy shartnomadir. Biroq bu barqarorlik iqtisodiy rivojlanish, ta'lim va urbanizatsiyaga asoslangan modernizatsiya bilan

<sup>7</sup> Hantington, S. P. (1968). Political order in changing societies. Yale University Press.

<sup>8</sup> Lipset, Seymour Martin. Political Man: The Social Bases of Politics. Doubleday & Company, 1960

<sup>9</sup> <https://www.newarab.com/analysis/vision-2040-omans-ambitious-strategy-towards-post-oil-economy>

mustahkamlangan. Ummon hukumatining iqtisodiy farovonlikka erishishdagi siyosiy strategiyasi — ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va potentsial noroziliklarning oldini olishga qaratilgan. Shu boisdan, Ummon tajribasi ko'rsatadiki, siyosiy barqarorlik faqat liberal-demokratik institutlar bilan emas, balki strategik modernizatsiya va avtoritar boshqaruvning birgalikdagi uyg'unlashuvi orqali ham ta'minlanishi mumkin. Bu esa Ummonni mintaqadagi boshqa arab davlatlaridan farqlab turadi va uni o'rganish uchun muhim siyosiy laboratoriyaga aylantiradi.

Normativ va empirik barqarorlik tafovuti - Barqarorlikka doir nazariyalar ko'pincha uni normativ nuqtai nazardan - ya'ni ideallashgan demokratik institutlar mavjud bo'lgan holatda ko'radilar. Biroq siyosiy tahlilda empirik barqarorlik tushunchasi ham muhim o'rin egallaydi. Empirik barqarorlik - bu tizimning uzoq muddatli davomiyligi, ichki qarama-qarshiliklarni boshqarish qobiliyati va hokimiyat almashinuvi jarayonlaridagi izchillik bilan bog'liqdir.<sup>10</sup> Ummon sultonligi empirik barqarorlikning yorqin namunasi bo'lib, hatto demokratik mezonlarga to'liq javob bermagan taqdirda ham, ichki beqarorlikning past darajasi, zo'ravonliksiz boshqaruv almashinuvi (masalan, Sulton Qobusdan Sulton Haysamga) va siyosiy elitaning konsolidatsiyasi ushbu barqarorlikni kafolatlaydi.

Tashqi omillar va geosiyosiy barqarorlik - Ummonning siyosiy barqarorligida tashqi omillar, xususan, uning neytral tashqi siyosati va mintaqaviy vositachilik roli ham muhim rol o'ynaydi. Mamlakat Erondan tortib Saudiya Arabistonigacha bo'lgan ziddiyatlarda vositachilik qilish, xorijiy ittifoqlardan foydali masofada turish orqali ichki barqarorlikni mustahkamlab kelmoqda. Bu esa uni tashqi bosimlardan asrab qolgan va ichki siyosiy tizimga tashqi ta'sirlarning zararini kamaytirgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy shartnoma (social contract) va paternalistik boshqaruv - Ummon sultonligi fuqarolari va davlat o'rtasida "noformal shartnoma" mavjud bo'lib, bunda davlat fuqarolarga iqtisodiy farovonlik, infratuzilma, sog'liqni saqlash va ta'lim bilan kafolatlangan xizmatlar taklif qiladi, evaziga siyosiy ishtirok cheklangan bo'ladi. Bu paternalistik boshqaruv modeli o'ziga xos ijtimoiy barqarorlikni ta'minlagan. Ayniqsa 2011-yilgi Arab bahori davrida Ummon boshqa ko'plab arab davlatlariga nisbatan kam norozilik to'lqinlari bilan ajralib turgani bunga dalildir.<sup>11</sup>

Mintaqaviy kontekstdagi solishtirma ustunlik - Barqarorlikni mintaqaviy kontekstda baholaganda, Ummon Yaqin Sharq mintaqasida o'zining nisbiy xavfsizligi va siyosiy izchilligi bilan ajralib turadi. Misr, Liviya, Yaman kabi davlatlar Arab bahori ortidan beqarorlikka yuz tutgan bo'lsa, Ummon ushbu notinchlik davrini nisbatan osoyishta o'tkazdi. Bu holat Ummon siyosiy modelining o'ziga xosligini yanada muhimroq qilmoqda.

Barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanish tushunchasi siyosatshunoslik, ijtimoiy fanlar va xalqaro munosabatlar doirasida shakllangan murakkab ko'p komponentli kategoriya bo'lib, u quyidagi omillar bilan izohlanadi: siyosiy tizimning ichki muvozanatga ega bo'lishi, siyosiy institutlarning barqaror ishlashi va qonuniyligi, jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya va nizo/qarama-qarshiliklarning kamligi, davlat boshqaruvi va hokimiyatning legitimligi, fuqarolarning siyosiy ishtirok darajasi va ijtimoiy farovonlik.

Samuel Hantington - siyosiy rivojlanish va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatga e'tibor qaratadi. U fikricha, modernizatsiya (sanoatlashuv, urbanizatsiya, ta'lim) ortidan siyosiy institutlar kuchaymasa, beqarorlik yuzaga keladi. "Tartibsizlik - bu siyosiy tizimning yetishmovchiligi emas, balki rivojlanishning noto'g'ri muvozanati."<sup>12</sup>

<sup>10</sup> Juan Linz & Alfred Stepan (1996) – Problems of Democratic Transition and Consolidation

<sup>11</sup> International Crisis Group (2020) – Oman's Transition Challenge

<sup>12</sup> Huntington, S. P. (1968). Political Order in Changing Societies. Yale University Press.

“Barqarorlik — bu siyosiy tizimning tashqi bosimlarga moslasha olish qobiliyati”. David Easton “feedback loop” orqali tizim o‘zini yangilaydi va jamiyat ehtiyojlariga javob qaytaradi.<sup>13</sup>

Fransis Fukuyama - barqaror rivojlanishni institutlarning kuchi, qonun ustuvorligi va davlat idoralarning samaradorligi orqali tushuntiradi.

UNDP (United Nations Development Programme) Human Development Reports - barqaror rivojlanish — bu siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkam, adolatli va inklyuziv tizimlar asosida fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan jarayon.

**Barqaror siyosiy rivojlanishni quyidagi asosiy komponentlar orqali konseptuallashtirish mumkin:**

Komponent	Mazmuni
Siyosiy legitimlik	Fuqarolarning hokimiyatni qonuniy deb qabul qilishi
Institutsional muvozanat	Hukumat tarmoqlari va institutlar o‘rtasidagi kuchlar muvozanati
Ijtimoiy integratsiya	Turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida uyg‘unlik va o‘zaro anglashuv
Moslashuvchanlik (Adaptability)	Siyosiy tizimning yangi sharoitlarga moslasha olishi
Tashqi xavfsizlik	Tashqi bosimlar (harbiy, iqtisodiy)ga nisbatan mustahkam pozitsiya

Ummon Sultonligi siyosiy tizimi rasmiy jihatdan avtoritar bo‘lsa-da, barqaror rivojlanish konsepti an’anaviy legitimlik, davlat xizmatlarining samaradorligi, diniy birdamlik, va xalqaro neytrallik siyosati orqali amalga oshirilgan. Sulton Qobus boshchiligidagi uzoq muddatli liderlik va siyosiy islohotlar orqali jamiyatdagi o‘ziga xos barqarorlikka erishilgan.

Barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanishni o‘rganish zamonaviy siyosatshunoslikda ko‘plab nazariy va metodologik yondashuvlar asosida olib boriladi. Ushbu yondashuvlar jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, siyosiy institutlarning funksional salohiyati, legitimlik manbalari, shuningdek, ijtimoiy integratsiyaning darajasini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Quyida barqarorlikni tadqiq etishda keng qo‘llaniladigan muhim tahlil uslublari bayon etiladi.

Institutsional yondashuv siyosiy barqarorlikni davlat institutlarining mustahkamligi va ularning funksional imkoniyatlari bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Bu yondashuv doirasida parlament, ijro hokimiyati, sud tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro muvozanatdagi faoliyati tahlil qilinadi. Douglas North va Francis Fukuyama kabi olimlarning ta’kidlashicha, samarali ishlaydigan formal institutlar — siyosiy tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi. Ummon Sultonligi misolida esa parlament vakolatlarining cheklangani va siyosiy qarorlar asosan monarxiya doirasida qabul qilinishi, siyosiy barqarorlikka muqobil — 165 aternalistic-himoyaviy institutlar orqali erishilayotganini ko‘rsatadi.

Siyosiy tizimning barqarorligi ko‘pincha hokimiyatning legitimlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Max Weber tomonidan ishlab chiqilgan legitimlik klassifikatsiyasiga ko‘ra, hokimiyat an’anaviy, xarizmatik yoki huquqiy-ratsional asoslarda legitim bo‘lishi

<sup>13</sup> Easton, D. (1965). A Systems Analysis of Political Life. Wiley.

mumkin.<sup>14</sup> Zamonaviy tadqiqotlar ushbu yondashuvni yanada chuqurlashtirib, fuqarolarning davlat institutlariga nisbatan ishonchi, ularning siyosiy ishtiroki va rozilik darajasini o'lchashga qaratilgan indikatorlarni ishlab chiqdi. Ummon Sultonligi holatida siyosiy legitimlik asosan an'anaviy va xarizmatik asoslarda shakllanadi. Sultonning obrazidagi siyosiy peshvolik, boshqaruv uslubi va tarixiy uzviylik siyosiy tizim barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardandir.

Barqarorlikni o'rganishda ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar va konflikt salohiyatini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Siyosiy tizimlar o'zida mavjud bo'lgan ijtimoiy, etnik, diniy, sinfiy xilma-xillikni qanday boshqarayotgani — siyosiy barqarorlik darajasining muhim indikatoridir. Almond va Powell ta'kidlaganidek, jamiyatda integratsiya darajasining yuqoriligi siyosiy tizimning mustahkamligini oshiradi. Ummon Sultonligi ko'p konfessiyali jamiyat bo'lishiga qaramay, diniy bag'rikenglik siyosati orqali ijtimoiy ziddiyatlarning oldi olinmoqda. Bu esa siyosiy barqarorlikning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Siyosiy barqarorlikni tadqiq qilishda siyosiy madaniyat omili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Almond va Verba (1963) siyosiy madaniyatni fuqarolarning siyosiy tizimga nisbatan munosabati, ishtiroki va ishonchi orqali tavsiflaydi. Siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi "fuqarolik madaniyati" modeli aynan ana shu komponentlarga tayanadi. Ummon sharoitida fuqarolarning siyosiy ishtirok darajasi past bo'lsa-da, bu siyosiy befarqlik emas, balki hukumatga nisbatan passiv ishonch (passive loyalty) shaklida namoyon bo'ladi. Bu esa o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Siyosiy tizim barqarorligini baholashda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan indekslar va ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Xususan: Worldwide Governance Indicators (WGI) Human Development Index (HDI) Fragile States Index Freedom House reytinglari Ushbu indikatorlar siyosiy barqarorlikni davlat boshqaruvi sifati, siyosiy ishtirok, inson huquqlari, iqtisodiy taraqqiyot kabi mezonlar orqali baholash imkonini beradi. Ummon ushbu reytinglarda siyosiy erkinlik jihatidan past ball olsa-da, iqtisodiy rivojlanish, huquq-tartibot barqarorligi va ijtimoiy xizmatlar sifatining yuqoriligi orqali umumiy siyosiy barqarorlikni saqlab kelmoqda.

**Barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanishni tahlil qilish yondashuvlari: Ummon tajribasi asosida taqqoslash:**

Tahlil yondashuvi	Asosiy nazariy asoslar	Baholanadigan jihatlar	Ummon Sultonligi misolida
Institutsional tahlil	D. North, F. Fukuyama	Parlament, ijro hokimiyati, sudlar, OAV	Parlament kuchsiz, lekin markazlashtirilgan boshqaruv samarali ishlaydi
Legitimlik tahlili	Max Weber, B. Gilley	Hokimiyat manbai, xalq ishonchi, siyosiy ishtirok	An'anaviy va xarizmatik legitimlik; Sultonga yuqori ishonch

<sup>14</sup> Weber, Max. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. University of California Press, 1978

Ijtimoiy integratsiya	Almond & Powell, Lijphart	Etnik-diniy muvozanat, ijtimoiy adolat	Konfessiyalararo totuvlik siyosiy barqarorlikni kuchaytiradi
Siyosiy madaniyat	Almond & Verba	Siyosiy ishtirok, siyosiy qadriyatlar	Siyosiy passivlik, ammo ijobiy sadoqat orqali barqarorlik
Empirik-indikatorli tahlil	Freedom House, WGI, HDI, Fragile States Index	Boshqaruv sifati, siyosiy erkinlik, ijtimoiy xizmatlar	Siyosiy erkinlik past, ammo iqtisodiy- ijtimoiy barqarorlik yuqori

### Xulosa

Barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni o'rganishda ko'p darajali metodologik yondashuvlardan foydalanish zarur. Ummon misolida ko'rinib turibdiki, siyosiy barqarorlik nafaqat g'arbona demokratik institutlar orqali, balki tarixiy-madaniy kontekstga mos bo'lgan an'anaviy va boshqaruv shakllari asosida ham ta'minlanishi mumkin. Bu holat zamonaviy siyosatshunoslikda mavjud bo'lgan universal modellarning qayta ko'rib chiqilishini taqozo etadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, siyosiy barqarorlikni tahlil qilishda yagona nazariy model yetarli emas. Har bir siyosiy tizim o'zining madaniy, tarixiy va institutsional xususiyatlariga ega bo'lgani sababli, kompleks (ko'p qirrali) yondashuv zarur hisoblanadi. Ummon Sultonligi holati aynan shu nuqtayi nazardan muhim tadqiqot obyekti sanaladi: u g'arbona liberal-demokratik mezonlar asosida past reytinglarga ega bo'lsa-da, ichki siyosiy barqarorlik, ijtimoiy osoyishtalik va davlatga bo'lgan ishonch darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu holat siyosiy barqarorlikni baholashda nafaqat demokratik institutlar mavjudligi, balki davlat boshqaruvining funksional samaradorligi, legitim asoslari va ijtimoiy integratsiya darajasi ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fukuyama, F. (2011). The Origins of Political Order. Farrar, Straus and Giroux. –
2. North, D.C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.
3. Easton, D. (1965). A Systems Analysis of Political Life. Wiley. <https://bigenc.ru/b/a-systems-analysis-of-political-life-dc16de>
4. International Crisis Group (2020) – Oman's Transition Challenge. <https://www.crisisgroup.org/middle-east-north-africa/gulf-and-arabian-peninsula/oman>
5. Huntington, S. P. (1968). Political Order in Changing Societies. Yale University Press <https://elib.manas.edu.kg/book/8008-Political-Order-in-Changing-Societies.pdf>
6. Juan Linz & Alfred Stepan (1996) – Problems of Democratic Transition and Consolidation <https://archive.org/details/problemsofdemocr00linz>
7. Levitsky, S., & Way, L. A. (2002). The Rise of Competitive Authoritarianism. Journal of Democracy, 13(2), 51–65. <https://www.sci-hub.ru/10.1353/jod.2002.0026>